



XXI ASR KO‘NIKMALARI ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QISH DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALASH TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Nishonova Gózal Akrom qizi

*Samarqand viloyati Samarqand shahar 32-umumiy órta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf óqituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur tadqiqotda XXI asr ko‘nikmalari nuqtayi nazaridan boshlang‘ich ta‘lim o‘qish darslarida raqamli hikoyalash texnologiyasini qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Raqamli hikoyalash o‘quvchilarda kreativ tafakkur, tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetensiyalar va media savodxonlikni rivojlantirishda samarali vosita sifatida qaraladi. Tadqiqotda o‘qish darslariga raqamli hikoyalarni integratsiya qilish orqali ta‘lim jarayonining samaradorligi oshishi, o‘quvchilarda mustaqil izlanish va jamoada ishlash ko‘nikmalarining shakllanishi ilmiy asosda yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *XXI asr ko‘nikmalari, raqamli hikoyalash, boshlang‘ich ta‘lim, o‘qish darslari, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik, kommunikativ kompetensiya, ta‘lim texnologiyalari.*

Аннотация: *В статье проанализированы теоретические и практические аспекты применения технологии цифрового сторителлинга на уроках чтения в начальной школе с позиции формирования навыков XXI века. Цифровое сторителлинг рассматривается как эффективное средство развития креативного мышления, критического анализа, коммуникативных компетенций и медиаграмотности учащихся. В исследовании обосновано, что интеграция цифровых историй в уроки чтения способствует повышению эффективности образовательного процесса, формированию у школьников навыков самостоятельного поиска и работы в команде.*

Ключевые слова: *навыки XXI века, цифровое сторителлинг, начальное образование, уроки чтения, креативность, критическое мышление, медиаграмотность, коммуникативная компетенция, образовательные технологии.*

Annotation: *The article analyzes the theoretical and practical aspects of applying digital storytelling technology in primary school reading lessons from the perspective of 21st-century skills development. Digital storytelling is considered an effective tool for fostering creative thinking, critical analysis, communicative competencies, and media literacy among students. The study substantiates that integrating digital stories into reading lessons enhances the efficiency of the educational process and promotes the development of students' independent inquiry and teamwork skills.*

Keywords: *21st-century skills, digital storytelling, primary education, reading lessons, creativity, critical thinking, media literacy, communication competence, educational technology.*



Bugungi globallashuv davrida ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo’llash tobora dolzarb masalaga aylanib bormoqda. XXI asrda o’quvchilardan nafaqat an’anaviy bilimlar, balki keng qamrovli ko’nikmalar – tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash va media savodxonlik talab etilmoqda. Shu jihatdan raqamli texnologiyalar, xususan, raqamli hikoyalash (digital storytelling) o’qish darslarida o’quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning fikrlash faoliyatini rivojlantirish va ta’lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim o’rin tutadi.

XXI asr ko’nikmalari tushunchasi xalqaro miqyosda “4K” modeli – Creativity (ijodkorlik), Critical thinking (tanqidiy fikrlash), Communication (kommunikatsiya), Collaboration (hamkorlik) orqali izohlanadi. Bu ko’nikmalar zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun asosiy kompetensiyalar sifatida qaraladi. O’zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida ham mazkur yondashuvlarga mos ravishda davlat ta’lim standartlari ishlab chiqilib, o’quvchilarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, axborot bilan ishlash va hamkorlikda faoliyat yuritish ko’nikmalarini shakllantirish maqsad qilib qo’yilgan. Boshlang’ich ta’limda o’qish darslari nafaqat savodxonlikni rivojlantirish, balki o’quvchilarda keng qamrovli dunyoqarash, muloqot madaniyati va ijodiy tafakkurni shakllantirish imkonini beradi. Shunday ekan, o’qish darslariga XXI asr ko’nikmalarini tatbiq etish alohida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. O’zbekiston Respublikasi davlat ta’lim standartlarida (DTSt) ham XXI asr ko’nikmalarini rivojlantirishga alohida urg’u berilgan. UNESCO va OECD kabi xalqaro tashkilotlar ham 21-asr ko’nikmalarini global raqobatbardoshlikning asosiy mezonlaridan biri sifatida belgilab berishgan.

Boshlang’ich ta’limda o’quvchilarning kreativ tafakkuri, tasavvuri va qiziqishi tez rivojlanadi. Shu sababli o’qish darslari orqali ularning so’z boyligi, matni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish va jamoada ishlash kabi ko’nikmalari shakllanadi.

Raqamli hikoyalash – bu an’anaviy hikoya qilish jarayonini zamonaviy texnologiyalar yordamida yangi bosqichga olib chiqadigan metoddir. Unda matn, rasm, ovoz, musiqa, animatsiya va video elementlari uyg’unlashib, o’quvchi va o’qituvchining ijodiy faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, o’quvchilar ertak yoki hikoyani o’qib chiqqach, uning asosida raqamli hikoya tayyorlash orqali nafaqat matni angelaydi, balki o’z dunyoqarashi va ijodiy yondashuvini ifodalaydi. Bu jarayon o’quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularni mustaqil o’qishga va fikr bildirishga undaydi. Shuningdek, o’qituvchi uchun ham darslarni yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Digital storytelling’ning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: hikoya mazmuni, vizual materiallar, ovozli izoh (narratsiya), musiqiy fon va interaktivlik. Hikoya yaratish jarayoni esa bir nechta bosqichlarni o’z ichiga oladi: reja tuzish, kontent yig’ish, ssenariy yozish, vizuallashtirish, tahrirlash va taqdim etish. Bu jarayon o’quvchilarni faqat tinglovchi emas, balki faol ijodkor sifatida ishtirok etishga undaydi. Raqamli hikoyalashning tarbiyaviy ahamiyati ham beqiyos. U orqali milliy qadriyatlarni singdirish, ijobiy obrazlar yaratish va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish mumkin.

O’qish darslarida raqamli hikoyalashdan foydalanish

Boshlang’ich ta’lim o’qish darslarida raqamli hikoyalashni quyidagi shakllarda qo’llash mumkin:



1. O‘quvchilarning mustaqil hikoya yaratishi – o‘qigan matni asosida qisqa video yoki audio hikoya tayyorlash.
2. Guruhiy loyiha ishlari – bir necha o‘quvchidan iborat guruh bitta ertak yoki hikoya asosida raqamli mahsulot yaratadi.
3. Vizual hikoyalash – matn mazmunini rasmlar va grafikalar asosida ifodalash.
4. Interfaol topshiriqlar – hikoya davomida savol-javob, rolli o‘yin yoki dramatzatsiya elementlarini qo‘llash.
5. Virtual platformalardan foydalanish – masalan, Storybird, Canva, Adobe Express kabi vositalarda hikoya yaratish.

Ushbu usullar orqali o‘quvchilar nafaqat matnni o‘rganadilar, balki uni qayta ishlash, tahlil qilish va ijodiy tarzda ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning media savodxonligini oshiradi, jamoada ishlash va o‘z fikrini erkin ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

O‘quvchilar o‘zlari hikoya yaratish jarayonida matnni chuqur anglydilar, qahramonlarning xarakterini tahlil qiladilar, voqealar ketma-ketligini mantiqan bog‘laydilar. Bunday jarayon ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘z ijod mahsulini taqdim qilish orqali nutqiy kompetensiyasini ham boyitadilar. Natijada o‘quvchilarda mustaqil izlanish, kreativ fikrlash, AKT vositalaridan samarali foydalanish, jamoada ishlash va o‘z fikrini erkin ifoda etish ko‘nikmalari shakllanadi.

Ilmiy tadqiqotlar va xorijiy tajriba

Digital storytelling bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu metodning samaradorligini keng isbotlab bergan.

Xalqaro tadqiqotlar:

1. Robin (2008) o‘z ilmiy ishida raqamli hikoyalashni XXI asr sinfida eng samarali o‘quv texnologiyalaridan biri sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, raqamli hikoya yaratish jarayoni o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va texnologik savodxonligini rivojlantiradi.

2. Ohler (2013) raqamli hikoyalash o‘quvchilarni nafaqat bilim oluvchi, balki ijodkor sifatida shakllantirishini, media madaniyatini rivojlantirishda katta rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

3. Sadik (2008) Turkiya maktablarida olib borgan tadqiqotida raqamli hikoya yaratgan o‘quvchilar matnni an’anaviy o‘qiganlarga qaraganda ko‘proq eslab qolishini va uni chuqurroq anglaganini aniqlagan.

4. Yang va Wu (2012) Tayvanda olib borgan tadqiqotida raqamli hikoyalash talabalarning hamkorlikda ishlash, muammolarni yechish va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirishini ko‘rsatib bergan.

Xorijiy tajriba:

- AQSh maktablarida raqamli hikoyalash keng joriy qilingan bo‘lib, ko‘plab o‘qituvchilar uni adabiyot va til darslarida asosiy metodlardan biri sifatida qo‘llaydilar. Masalan, Kaliforniya shtatida boshlang‘ich sinflar uchun maxsus “Digital Storytelling Workshop” dasturi yo‘lga qo‘yilgan.

- Yevropa davlatlarida, xususan, Buyuk Britaniya va Finlyandiyada raqamli hikoyalash o‘quvchilarning media savodxonligini oshirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida qo‘llanilmoqda.

- Janubiy Koreya ta‘lim tizimida “Smart Education” dasturi doirasida barcha maktablarda raqamli hikoyalash metodlari keng joriy etilgan. Bu o‘quvchilarning nafaqat o‘qish, balki multimedia kontent yaratish ko‘nikmalarini ham rivojlantirmoqda.

- Avstraliyada raqamli hikoyalash jarayoni bolalarda ijtimoiy-emotsional o‘shiga ham xizmat qilishi ta‘kidlanadi. Ular hikoya yaratish orqali o‘z his-tuyg‘ularini ifodalashni, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashni o‘rganadilar.

O‘zbekiston tajribasi: So‘nggi yillarda mamlakatimizda ham ta‘lim tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga e‘tibor kuchaymoqda.

Xususan:

- Elektron darsliklar, onlayn platformalar (masalan, EduMarket, Kundalik, Ziyonet) orqali o‘quvchilarning mustaqil ta‘lim olish imkoniyatlari kengaymoqda.

- Boshlang‘ich ta‘limda multimedia vositalaridan foydalanish o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalarda tavsiya etilmoqda.

- Ayrim maktablarda raqamli hikoya yaratishga oid kichik loyihalar sinov tariqasida joriy qilinmoqda.

Raqamli hikoyalash texnologiyasini qo‘llagan o‘qituvchilar dars samaradorligining oshishini, o‘quvchilarda o‘qishga qiziqish ortganini, ularning ijodkorligi va kommunikativ faolligi sezilarli darajada rivojlanganini ta‘kidlaydilar. Masalan, o‘quvchilar ertak qahramonlari ishtirokida qisqa raqamli video hikoyalar yaratganda nafaqat matnni anglaydi, balki uning mazmunini tahlil qilib, ijodiy tarzda qayta ifodalaydi. Praktik misollar:

• Boshlang‘ich sinfda “Zumrad va Qimmat” ertagini o‘rganishda o‘quvchilar qisqa raqamli video hikoya tayyorlagan. Ular voqealarni sahnalashtirib, ovozli izoh bilan taqdim etishgan. Natijada o‘quvchilar ertak mazmunini chuqurroq anglashgan va personajlarning xarakterini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishgan.

• “Alpomish” dostonidan parcha asosida o‘quvchilar raqamli slayd-shou hikoya yaratishgan. Bu jarayon ularning nafaqat o‘qish ko‘nikmalarini, balki milliy qadriyatlarga hurmatini oshirgan.

• Guruhli loyiha sifatida kichik sinf o‘quvchilari “Mening orzumdagi maktab” mavzusida raqamli hikoya tayyorlab, o‘z g‘oyalarini video orqali ifoda etishgan. Bu jarayon ularda jamoada ishlash, ijodkorlik va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirgan.

Raqamli hikoyalash texnologiyasini ta‘lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha olib borilgan amaliy tajribalar ushbu metodning samaradorligini keng ko‘lamda tasdiqlamoqda.

O‘quvchilarda ko‘zatilgan natijalar:

O‘qishga qiziqishning ortishi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli hikoya yaratishda ishtirok etgan o‘quvchilar an‘anaviy matn o‘qish jarayoniga qaraganda ko‘proq rag‘bat va motivatsiyaga ega bo‘ladilar. Chunki ular o‘z bilimlarini nafaqat eshitish va o‘qish orqali, balki ko‘rish, tinglash va yaratish jarayonida ham mustahkamlashadi.



Ijodiy tafakkurning rivojlanishi. O‘quvchilar hikoya yaratishda obrazlar, voqealar ketma-ketligi va musiqiy fonni mustaqil tanlaydi, bu esa ularning kreativ qobiliyatlarini shakllantiradi.

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarining kuchayishi. Hikoya mazmunini qayta ishlash jarayonida o‘quvchi matnni chuqur tahlil qiladi, qahramonlar xarakteriga baho beradi, muammoli vaziyatlarga yechim izlaydi.

Kommunikativ kompetensiyaning oshishi. Guruh bo‘lib hikoya yaratish jarayonida o‘quvchilar bir-birlari bilan hamkorlik qiladi, o‘z fikrini ifoda etadi va boshqalar nuqtayi nazarini inobatga olishni o‘rganadi.

Media savodxonlikning shakllanishi. Raqamli hikoya yaratishda o‘quvchilar texnologiyalardan foydalanish, vizual va audio kontentni tanlash, tahrirlash va taqdim qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.

XXI asr ta‘limi o‘quvchilardan zamonaviy bilimlar bilan bir qatorda ularni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy fikrlash va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko‘nikmalarini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, raqamli hikoyalash texnologiyasi boshlang‘ich ta‘lim o‘qish darslarida nafaqat innovatsion metod sifatida, balki ta‘lim jarayonining mazmunini boyituvchi samarali vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarning matnni o‘zlashtirish darajasini oshirish bilan birga, ularning qiziqishini kuchaytiradi, nutqiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantiradi, shuningdek, o‘quv jarayonini yanada mazmunli va samarali qiladi. Ilmiy tadqiqotlar hamda xorijiy tajribalar raqamli hikoyalash o‘quvchilarni faollikka undashini, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirishini va ularni hamkorlikka yo‘naltirishini tasdiqlaydi. Mazkur metod o‘quvchilarni o‘quv jarayonining passiv ishtirokchisidan faol bilim egasiga aylantiradi, ularni matn ustida chuqur ishlashga, voqealarni tahlil qilishga va o‘z fikrini mustaqil ifoda etishga yo‘naltiradi. Bundan tashqari, o‘quvchilar raqamli hikoya yaratish jarayonida nafaqat o‘qish va yozish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, balki axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, vizual va audio materiallarni tanlash hamda ulardan ta‘limiy maqsadlarda foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston ta‘lim tizimida olib borilgan dastlabki tajribalar ham bu texnologiyaning samaradorligini ko‘rsatmoqda. Darslarda raqamli hikoyalashdan foydalanilgan sinflarda o‘quvchilarning faolligi, o‘z fikrini erkin ifoda etishi va o‘qishga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgargan. Shuningdek, o‘quvchilarda milliy qadriyatlar va an‘anaviy ertaklar asosida yaratilgan raqamli hikoyalar orqali madaniy merosga hurmat hissi shakllangan. Umuman olganda, raqamli hikoyalash texnologiyasi boshlang‘ich ta‘lim o‘qish darslarida qo‘llanilganda o‘quvchilarda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, ijodiy va tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, media savodxonlikni oshirish hamda XXI asr kompetensiyalarini egallashga zamin yaratadi. Shu bois kelgusida ushbu metodni ta‘lim tizimiga keng joriy etish, uni mahalliy sharoitga moslashtirish, o‘qituvchilar uchun maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish va raqamli hikoyalashning samaradorligini ilmiy jihatdan chuqurroq tadqiq etish muhim vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimova, D. (2020). Boshlang‘ich ta‘limda innovatsion metodlardan foydalanish asoslari. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Azizxo‘jayeva, N. (2019). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Ilm Ziyo.
3. Bruner, J. (1996). The Culture of Education. Harvard University Press.
4. Karimov, I. A. (2008). Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma‘naviyat.
5. Lambert, J. (2013). Digital Storytelling: Capturing Lives, Creating Community (4th ed.). New York: Routledge.
6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi. (2021). Boshlang‘ich ta‘lim davlat ta‘lim standarti. Toshkent.
7. Robin, B. (2016). The power of digital storytelling to support teaching and learning. Digital Education Review, 30, 17–29.
8. Sadik, A. (2008). Digital storytelling: A meaningful technology-integrated approach for engaged student learning. Educational Technology Research and Development, 56(4), 487–506.
9. Yang, Y.-T. C., & Wu, W.-C. I. (2012). Digital storytelling for enhancing student academic achievement, critical thinking, and learning motivation: A year-long experimental study. Computers & Education, 59(2), 339–352.
10. Yusupova, M. (2020). Boshlang‘ich sinflarda mediamadaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti.